

**JIZZAX VILOYAT STATISTIKA  
BOSHQARMASI**



**JIZZAX VILOYATIDA  
XIZMATLAR SOHASINING  
RIVOJLANISHI**

**2022- YILNING  
YANVAR-OKTABR OYLARIDA**

**Dastlabki ma'lumotlar**

## Xizmatlar sohasi



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi –  
6 546,5 mlrd. so'm



Xizmatlar sohasida kichik biznesning  
ulushi – 58,6 %



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi – 4 499,2 ming so'm

Xizmatlar sohasini har tomonlama rivojlantirish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, samarali bandlik va aholi turmush darajasini oshirishning dolzarb masalasidir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 264,8** mlrd. so'mga oshib, **6 546,5** mlrd. so'mga yetdi.


Taqqoslama ekvivalentda 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga (**118,8 %**) nisbatan o'sish sur'ati **115,2 %** ni tashkil etdi.

Diskret qiymatlar bu – qiymatlari faqat ma’lum daqiqalarda, ma’lum vaqt oralig’ida (oy, chorak, yil) belgilangan, o’lchanadigan, hisoblangan ko’rsatkichlar.


2021- yil oktabr oyiga nisbatan (**575,2** mlrd. so‘m), 2022- yil oktabr (diskret oy) uchun taqdim etilgan bozor xizmatlari hajmi (**702,2** mlrd. so‘m) **127,0** mlrd. so‘mga oshdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil oktabr oyidagi xizmatlar hajmi 2020- yil oktabriga nisbatan **91,2** mlrd. so‘mga oshgan.

## Ko’rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, mlrd. so‘m



## Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, trln. so'm



2022- yilning yanvar-oktabr oylarida yakunlariga ko'ra, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **6,5** trln. so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan (**5,3** trln. so'm) hajmi **1,2** trln. so'mga oshdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-oktabr oylarining hajmi 2020- yilning shu davriga nisbatan 1,2 trln. so'mga yuqori bo'lgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ushbu xizmatlarning ulushi **29,2** % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (**26,9** %), transport xizmatlari (**14,5** %), ta'lim sohasidagi xizmatlar bo'yicha (**5,3** %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**5,0** %) ham qayd etildi.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,4** % ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-oktabr oylarida umumiy savdo xizmatlari **29,2 %**, moliyaviy xizmatlar **25,5 %**, transport **16,1 %**, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **5,0 %** va ta'lim **5,0 %** ni tashkil etdi. Ushbu davrda me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarining ulushi ham minimal bo'lgan – **1,5 %**.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da (2022- yil yanvar-oktabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmini o'sishining asosiy omili moliyaviy xizmatlarning **28,4 %** ga o'sishi (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga qo'shgan hissasi **7,3** punkt), savdo xizmatlari – **10,7 %** ga (o'sishga qo'shgan hissasi **3,2** punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – **23,0 %** ga (o'sishga qo'shgan hissasi **1,2** punkt), ta'lim xizmatlari– **18,8 %** (oshirishga qo'shgan hissasi **0,9** punkt), transport xizmatlari – **4,7 %** (oshirishga qo'shgan hissasi **0,7** punkt), ijara xizmatlari – **33,9 %** (oshirishga qo'shgan hissasi **0,7** punkt), shuningdek, boshqa xizmatlar – **11,1 %** ga, ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmining o'sishiga qo'shgan hissasi **0,3** punktni tashkil etdi.

## 2022- yil yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmini oshirishga xizmat turlari bo'yicha qo'shgan hissasi, f.p.





## JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

| Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari<br>(yanvar-oktabr oylarida )               | Hajmi, mlrd. so'm |                | O'sish sur'ati, % da |
|--|-------------------|----------------|----------------------|
|  | 2021- y.          | 2022- y.       |                      |
| <b>Xizmatlar – jami</b>  | <b>5 281,7</b>    | <b>6 546,5</b> | <b>115,2</b>         |
| <i>shu jumladan:</i>   |                   |                |                      |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari  | 263,5             | 329,0          | 123,0                |
| Moliyaviy xizmatlar  | 1 344,0           | 1 760,0        | 128,4                |
| Transport xizmatlari   | 851,4             | 948,2          | 104,7                |
| <i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>  | 832,8             | 925,6          | 104,3                |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari  | 155,5             | 197,9          | 109,6                |
| Savdo xizmatlari   | 1 540,5           | 1 911,2        | 110,7                |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar  | 106,2             | 121,0          | 106,4                |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlar  | 262,0             | 346,4          | 118,8                |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar   | 112,5             | 125,7          | 99,2                 |
| Ijara xizmatlari   | 109,2             | 156,6          | 133,9                |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar                          | 129,8             | 163,3          | 105,1                |
| Shaxsiy xizmatlar  | 145,2             | 179,9          | 109,8                |
| Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 80,4              | 91,9           | 106,7                |
| Boshqa xizmatlar   | 181,5             | 215,4          | 111,0                |

Aholi tomonidan xizmatlar sohasining har xil turlariga bo'lgan talabning barqaror o'sishi va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan infratuzilmani (ijtimoiy, transport-kommunikatsiya, savdo va boshqalar) rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar xizmat ko'rsatish sohasining barcha tarmoqlarini jadal rivojlantirishni ta'minladi.


Masalan, savdo ibtidoiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talabini yaratish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi.

Hozirgi vaqtda savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining muhim qismini tashkil etadi.




29,2  
2022-yil yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida savdo xizmatlari ulushi

**O'sish sur'ati,**  
% da



**Xizmatlar hajmi,**  
trln. so'm





## Savdo xizmatlarining tarkibi, % da (2022- yil yanvar-oktabr)



1. Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar
2. Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
3. Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



| <i>Hududlar kesimida savdo xizmatlarining tarkibi, % da<br/>(2022- yil yanvar-oktabr)</i> | <i>Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda</i> | <i>Ulgurji savdo xizmatlari</i> | <i>Chakana savdo xizmatlari</i> |
|---|---|---------------------------------|---------------------------------|
| Arnasoy   | 5,5   | 13,0                            | 81,5                            |
| Baxmal  | 24,3  | 4,1                             | 71,6                            |
| G'allaorol  | 4,1   | 2,2                             | 93,7                            |
| Sharof Rashidov   | 7,7   | 8,4                             | 83,9                            |
| Do'stlik  | 6,9   | 17,7                            | 75,4                            |
| Zomin   | 4,8   | 7,8                             | 87,4                            |
| Zarbdor   | 1,9   | 3,5                             | 94,6                            |
| Zafarobod   | 4,5   | 4,1                             | 91,4                            |
| Mirzacho'l  | 2,1   | 12,2                            | 85,7                            |
| Paxtakor  | 5,6   | 11,4                            | 83,0                            |
| Forish  | 3,5   | 2,2                             | 94,3                            |
| Yangiobod   | 6,9   | 2,8                             | 90,3                            |
| Jizzax shahri   | 12,4  | 20,3                            | 67,3                            |


Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

## Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da





**Avtomobil transporti xizmatlari**  
(yanvar-oktabr)

## O'sish sur'ati, % da



## Xizmatlar hajmi, trln. so'm




Bank tizimining moliyaviy barqarorligini isloh qilish hamda mustahkamlash, pul-kredit siyosatini erkinlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlashni yanada kengaytirish, real vaqt rejimida xizmatlar ko'lamini kengaytirish (Internet-banking, mobil banking) moliyaviy tashkilotlarning so'nggi elektron to'lov texnologiyalarini joriy etish tarmoqlari moliyaviy xizmatlarning o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.




## Moliyaviy xizmatlar (yanvar-oktabr)

Moliyaviy xizmatlarning hajmi **416,0** mlrd. so'mga oshdi va **1 760,0** mlrd. so'mga yetdi. Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida **26,9** % ni tashkil etdi. Jami moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **128,4** % ni tashkil etdi.

O'sish sur'ati,  
% da



Xizmatlar hajmi,  
trln so'm



***Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da  
(2022- yil yanvar-oktabr)***



**1. Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar**


**2. Sug'urta bo'yicha xizmatlar**

**3. Yordamchi moliyaviy faoliyat**


| <b>Moliyaviy xizmatlar<br/>(2022- yil yanvar-oktabr)</b> | <b>Hajm,<br/>mlrd. so'm</b> | <b>O'sish sur'ati,<br/>% da</b> |
|--|-----------------------------|---------------------------------|
| Arnasoy  | 19,2                        | 134,2                           |
| Baxmal   | 44,1                        | 146,5                           |
| G'allaorol   | 78,6                        | 142,8                           |
| Sharof Rashidov  | 86,4                        | 129,1                           |
| Do'stlik   | 34,4                        | 131,3                           |
| Zomin  | 75,2                        | 140,6                           |
| Zarbdor  | 44,3                        | 143                             |
| Zafarobod  | 17,9                        | 144,6                           |
| Mirzacho'l   | 56,4                        | 154,9                           |
| Paxtakor   | 27,3                        | 140,4                           |
| Forish   | 39,4                        | 130                             |
| Yangiobod  | 10,2                        | 123                             |
| Jizzax shahri  | 1226,6                      | 124,4                           |

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida innovatsiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish korxonalarda boshqaruv va texnologik jarayonlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi, iqtisodiyotning turli sohalarida mavjud bo'lgan tovar va xizmatlar bozorini kengaytirish va yangilarini barpo etish, oxir-oqibatda aholi turmush sifatini yaxshilashga olib keladi.


## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da (2022- yil yanvar-oktabr)



## O'sish sur'ati, % da



## Xizmatlar hajmi, trln. so'm





| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari<br>(2022- yil yanvar-oktabr) | Hajm,<br>mlrd. so'm | O'sish sur'ati,<br>% da |
|--|---------------------|-------------------------|
| Arnasoy  | 8,9                 | 120,2                   |
| Baxmal   | 29,5                | 121,2                   |
| G'allaorol   | 33,4                | 121,1                   |
| Sharof Rashidov  | 44,1                | 119,7                   |
| Do'stlik   | 12,5                | 120,5                   |
| Zomin  | 31,3                | 121,3                   |
| Zarbdor  | 16,7                | 121,9                   |
| Zafarobod  | 9,5                 | 121,4                   |
| Mirzacho'l   | 10,0                | 120,6                   |
| Paxtakor   | 15,3                | 120,7                   |
| Forish   | 59,5                | 117,7                   |
| Yangiobod  | 5,5                 | 120,5                   |
| Jizzax shahri  | 52,8                | 141,3                   |



2022- yilning yanvar-oktabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining yuqori o'sishi Jizzax shahrida (**41,3 %**), Zarbdor (**21,9 %**), Zafarobod (**21,4%**) tumanlarida qayd etildi.

Ushbu xizmatlar hajmining nisbatan biroz o'sishi Forish tumanida kuzatildi – **17,7 %**.

**Telekommunikatsiya xizmatlari (yanvar-oktabr)**


*O'sish sur'ati,  
% da*

*Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm*



| <b>Telekommunikatsiya xizmatlari<br/>(2022- yil yanvar-oktabr)</b> | <b>Hajm,<br/>mlrd. so'm</b> | <b>O'sish sur'ati,<br/>% da</b> |
|--|-----------------------------|---------------------------------|
| Arnasoy  | 8,9                         | 121,3                           |
| Baxmal   | 29,1                        | 122,3                           |
| G'allaorol   | 32,4                        | 122,3                           |
| Sharof Rashidov  | 42,8                        | 120,8                           |
| Do'stlik   | 12,5                        | 121,5                           |
| Zomin  | 31,0                        | 122,3                           |
| Zarbdor  | 16,6                        | 122,8                           |
| Zafarobod  | 9,5                         | 122,5                           |
| Mirzacho'l   | 10,0                        | 121,7                           |
| Paxtakor   | 14,2                        | 122,4                           |
| Forish   | 17,8                        | 120,6                           |
| Yangiobod  | 5,5                         | 121,6                           |
| Jizzax shahri  | 48,7                        | 152,9                           |

### Ta'lim sohasidagi xizmatlar (yanvar-oktabr)




| Ta'lim sohasidagi xizmatlar<br>(2022- yil yanvar-oktabr) | Hajm,<br>mlrd. so'm | O'sish sur'ati,<br>% da |
|--|---------------------|-------------------------|
| Arnasoy  | 1,7                 | 98,9                    |
| Baxmal   | 3,5                 | 102,3                   |
| G'allaorol   | 5,5                 | 104,3                   |
| Sharof Rashidov  | 8,7                 | 104,4                   |
| Do'stlik   | 5,6                 | 117,6                   |
| Zomin  | 6,0                 | 103,2                   |
| Zarbdor  | 1,9                 | 104,5                   |
| Zafarobod  | 1,1                 | 99,9                    |
| Mirzacho'l   | 1,9                 | 101,1                   |
| Paxtakor   | 4,2                 | 102,0                   |
| Forish   | 1,8                 | 101,1                   |
| Yangiobod  | 0,6                 | 99,0                    |
| Jizzax shahri  | 303,9               | 121,1                   |




## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (yanvar-oktabr)

**O'sish sur'ati,  
% da**




**Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm**



| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2022- yil yanvar-oktabr) | Hajm, mlrd. so'm | O'sish sur'ati, % da |
|--|------------------|----------------------|
| Arnasoy  | 0,4              | 99,2                 |
| Baxmal   | 1,9              | 103,2                |
| G'allaorol   | 4,3              | 97,9                 |
| Sharof Rashidov  | 7,7              | 103,6                |
| Do'stlik   | 0,9              | 104                  |
| Zomin  | 39,3             | 96                   |
| Zarbdor  | 0,3              | 93,2                 |
| Zafarobod  | 0,2              | 88,5                 |
| Mirzacho'l   | 3,1              | 101,1                |
| Paxtakor   | 0,9              | 102,9                |
| Forish   | 0,9              | 95,9                 |
| Yangiobod  | 1,9              | 102,7                |
| Jizzax shahri  | 63,9             | 100,5                |

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (yanvar-oktabr)


O'sish sur'ati,  
% da



Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar  
(2022- yil yanvar-oktabr)



Hajm, ming so'm


O'sish sur'ati, % da



## JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

| Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari<br>(2022- yil yanvar-oktabr) | Hajm,<br>mlrd. so'm | O'sish<br>sur'ati, %<br>da |
|--|---------------------|----------------------------|
| <b>Jizzax viloyati</b>   | <b>6 546,5</b>      | <b>115,2</b>               |
| Jizzax shahri  | 2 710,5             | 116,8                      |
| <i>viloyatlar:</i>   |                     |                            |
| Arnasoy  | 122,5               | 111,0                      |
| Baxmal   | 424,2               | 118,7                      |
| G'allaorol   | 543,4               | 114,8                      |
| Sharof Rashidov  | 870,3               | 112,6                      |
| Do'stlik   | 230,6               | 120,0                      |
| Zomin  | 538,8               | 112,3                      |
| Zarbdor  | 239,8               | 111,8                      |
| Zafarobod  | 114,7               | 111,1                      |
| Mirzacho'l   | 188,0               | 118,6                      |
| Paxtakor   | 216,5               | 116,5                      |
| Forish   | 283,7               | 110,8                      |
| Yangiobod  | 63,5                | 108,1                      |

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib turmush sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir, chunki xizmatlar bozorining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omil bu – aholining real daromadlari va turmush darajasining o'sishi.




## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-oktabr)


2022- yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 499,2** ming so'mga yetdi. 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **112,6** % ni tashkil etgan.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi **3 712,2** ming so'mni tashkil etgan.

**O'sish sur'ati,  
% da**




**Xizmatlar hajmi,  
trln. so'm**




2022-yilning yanvar-oktabr oylarida hududlar bo'yicha bu ko'rsatkich Jizzax shahrida **14 362,9** ming so'mdan Zafarobod tumanida **2 207,9** ming so'mgachani tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-oktabr)




**2022- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni




2021- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati



**2022- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*





**2022- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida  
faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari  
to'g'risida ma'lumot**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik tadbirkorlik subyektlari  
(yanvar-oktabr)**



**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
Tel.: 72-222-79-76**